



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



O‘ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA KİCHIK VA O‘RTA BİZNESNI SOHALARINI İQTİSODİYOTDAGI O‘RNİNİ OSHIRISH BORASIDAGI USTUVOR VAZİFALAR

Hojiqurbanov Qobiljon Turdaliyevich

Farg‘ona soliq texnikumi katta o‘qituvchisi

Ermatov Abdulaziz Olimjon og‘li

Farg‘ona soliq texnikumi 1-23 guruh talabasi

Tel: +998 95 009 10 78

Email: Khodjiquarbonov@mail.ru.

Annotasiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida kichik va o‘rta biznes sohalarining iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish masalasi ko‘rib chiqiladi. Kichik va o‘rta biznes bandlikni oshirish, ichki bozorni rivojlantirish va eksport hajmini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda ushbu sohaning hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Soliq yengilliklari, kreditlash tizimi va innovatsion yondashuvlar bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: biznes, iqtisodiyot, investitsiya, soliq, innovatsiya, bandlik, eksport, bozor, rivojlanish, texnologiya, tadbirkorlik, raqamlashtirish

Abstract: This article examines the issue of increasing the role of small and medium-sized businesses in the economy of the Republic of Uzbekistan. Small and medium-sized businesses play a crucial role in increasing employment, developing the domestic market, and expanding export volumes. The study analyzes the current state of this sector, existing problems, and ways to address them. Practical recommendations are provided on tax incentives, credit systems, and innovative approaches.

Keywords: business, economy, investment, tax, innovation, employment, export, market, development, technology, entrepreneurship, digitalization

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос повышения роли малого и среднего бизнеса в экономике Республики Узбекистан. Малый и средний бизнес играет важную роль в увеличении занятости, развитии внутреннего рынка и расширении объемов экспорта. В исследовании анализируется текущее состояние данного сектора, существующие проблемы и пути их решения. Представлены практические рекомендации по налоговым льготам, кредитной системе и инновационным подходам.

Ключевые слова: бизнес, экономика, инвестиции, налоги, инновации, занятость, экспорт, рынок, развитие, технологии, предпринимательство, цифровизация

KIRISH. Bugungi kunda kichik va o‘rta biznes mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular yangi ish o‘rinlarini yaratish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ushbu sektorning ulushini oshirish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kichik va o‘rta biznes subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, soliq yukini kamaytirish, moliyaviy resurslarga qulay sharoitda kirish imkoniyatini yaratish kabi chora-tadbirlar tizimli ravishda olib borilmoqda.

Shu bilan birga, kichik va o‘rta biznes rivojlanishida hali ham bir qator muammolar mavjud. Kredit resurslarining yetishmovchiligi, soliq va litsenziyalash tartiblarining murakkabligi, infratuzilma bilan bog‘liq muammolar hamda raqamli texnologiyalarning to‘liq joriy etilmagani tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga to‘sinqlik qilmoqda. Shuning uchun kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish masalasi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.[1]

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasida kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalarni aniqlash va ularni amalga oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rnini tahlil qilish;
- Soha rivojlanishiga to‘sinqlik qilayotgan asosiy muammolarni aniqlash;
- Xalqaro tajribani o‘rganish va O‘zbekiston sharoitiga mos keluvchi yechimlarni taklif etish;
- Soliq, kreditlash va investitsiya tizimini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- Innovatsion yondashuvlarni joriy etishning afzalliklarini aniqlash.

Mazkur tadqiqot kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy yondashuvlarni chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi. Nazariy jihatdan, ish kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlash bilan bog‘liq kontseptual yondashuvlarni tahlil qilishga asoslangan. Amaliy jihatdan esa, tadqiqot natijalari davlat organlari, tadbirkorlik subyektlari va investorlarga kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish bo‘yicha samarali strategiyalar ishlab chiqishda samarali ko‘nikma bo‘ladi.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda kichik va o‘rta biznes har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu sektor yangi ish o‘rinlarini yaratish, ichki bozorni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va eksport hajmini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda kichik va o‘rta biznes yalpi ichki mahsulot hajmining katta qismini tashkil etadi. Xususan, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda ushbu sektor iqtisodiyotning oltmis foizdan ortig‘ini qamrab oladi. O‘zbekiston ham kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizimli islohotlarni amalga oshirib, mazkur yo‘nalishda jahon tajribasidan foydalanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi ulushi tobora ortib bormoqda. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotining qirq sakkiz foizi aynan ushbu soha hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bundan





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



tashqari, kichik va o‘rta biznes bandlikning ellik foizidan ortig‘ini ta’minlab, aholi daromadlarini oshirish va kambag‘allikni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2023-yil bilan solishtirilganda, tadbirkorlik subyektlari sonining o‘sish sur’ati o‘n ikki foizni tashkil etgani kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, kichik va o‘rta biznesning rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlarida ushbu sektor iqtisodiy faoliyatning qirq to‘qqiz foizini tashkil etsa, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bu ko‘rsatkich oltmish besh foizga yetadi.[2] Xitoyda esa kichik va o‘rta biznes yalpi ichki mahsulotning yetmish foizini ta’minlab, mamlakat eksportining katta qismini tashkil qiladi. Biroq, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish jarayonida muayyan muammolar ham mavjud. Ulardan biri moliyaviy resurslarning yetishmovchiligi bo‘lib, bu ko‘plab tadbirkorlarning biznes boshlash yoki faoliyatini kengaytirishiga to‘sqinlik qilmoqda. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun ajratilayotgan kreditlarning ulushi bank tizimidagi umumiy kredit portfelining yigirma foizidan oshmaydi. Bundan tashqari, kredit stavkalarining yuqoriligi va garov talablarining murakkabligi tadbirkorlar uchun asosiy to‘siqlardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, soliq tizimidagi murakkablik va ma’muriy jarayonlarning ortiqcha bo‘lishi tadbirkorlarning samarali faoliyat yuritishiga to‘sqinlik qilmoqda. Soliq yukining og‘irligi, bojxona tartibotlarining murakkabligi ham kichik va o‘rta biznesning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqarish infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi va logistika tizimidagi kamchiliklar ham kichik biznes subyektlarining samaradorligini pasaytirmoqda. Masalan, viloyatlarda ko‘plab tadbirkorlar zaruriy kommunikatsiya va transport infratuzilmasining sust rivojlangandan shikoyat qilmoqda. Shuningdek, texnologik resurslarning yetishmovchiligi, malakali kadrlarning kamligi ham tadbirkorlarning rivojlanishiga jiddiy to‘sqinlik qilmoqda. Malakali mutaxassislarning yetishmovchiligi biznes jarayonlarining sifatlari amalga oshirilishiga ta’sir qilib, innovatsion yondashuvlarni keng qo‘llash imkoniyatlarini cheklaydi.[3]

Mazkur muammolarni bartaraf etish va kichik hamda o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish uchun bir qator ustuvor vazifalarni amalga oshirish lozim. Avvalo, davlat tomonidan kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun subsidiyalar ajratish va imtiyozli kreditlar tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan keng foydalanish kichik biznesning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, elektron tijorat va raqamli xizmatlar tizimini rivojlantirish tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratib, bozorga kirishni osonlashtiradi.[4]

Bundan tashqari, soliq yengilliklari va kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga yordam beradi. Shu bilan birga, mahalliy tadbirkorlarni xalqaro bozorlarga yo‘naltirish va eksport





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



imkoniyatlarini kengaytirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, eksport qiluvchi kichik biznes subyektlariga maxsus grantlar va qo‘srimcha imtiyozlar taqdim etilishi lozim. Hududiy rivojlanish va sanoat klasterlarini yaratish ham kichik va o‘rta biznesning o‘sishiga xizmat qiladi. Maxsus sanoat zonalarining tashkil etilishi ishlab chiqarish quvvatlarini oshirib, kichik biznesning yirik korxonalar bilan integratsiyasini ta’minlaydi. Bunday klasterlar tashkil etish orqali logistika xarajatlarini kamaytirish va xomashyo yetkazib berish tizimini optimallashtirish mumkin.

Muammo va tavsiyalar

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida kichik va o‘rta biznes iqtisodiyotning muhim tarmog‘i sifatida rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, bu sohada hali hanuz qator muammolar mavjud. Ushbu muammolar biznesning samarali rivojlanishiga to‘sqinlik qilib, tadbirkorlarning imkoniyatlarini to‘liq ishga solishga halaqit bermoqda. Quyida kichik va o‘rta biznesning rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar tahlil qilinadi.

Moliyaviy va Kreditlash bilan Bog‘liq Muammolar: Kichik va o‘rta biznes uchun eng dolzarb muammolardan biri moliyaviy resurslarning yetishmovchiligidir. Tadbirkorlarning aksariyati boshlang‘ich kapital yoki aylanma mablag‘ yetishmovchiligi sababli o‘z loyihalarini kengaytira olmaydi. Bank kreditlari esa yuqori foiz stavkalari va garov talablari sababli ko‘pchilik tadbirkorlar uchun qulay emas. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida 2024-yilda kichik va o‘rta biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar umumiyligi portfelining bor-yo‘g‘i yigirma besh foizini tashkil etgan. Bu esa moliyaviy qo‘llab-quvvatlash yetarli darajada emasligini ko‘rsatadi.[5]

Tavsiya:

- Kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun imtiyozli kreditlash dasturlarini kengaytirish va banklar tomonidan qo‘srimcha yengilliklar yaratish zarur.
- Kredit berish jarayonini soddalashtirish, garov talablari va byurokratik to‘siqlarni kamaytirish lozim.
- Davlat tomonidan grant va subsidiyalar ajratish orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish kerak.

Soliq va Huquqiy Tartibotlar Bilan Bog‘liq Muammolar: Kichik va o‘rta biznesning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi yana bir omil soliq tizimining murakkabligi va tartibotlarning ortiqcha bo‘lishidir. Tadbirkorlar uchun soliq yukining og‘irligi, bojxona to‘lovlarning yuqoriligi va ruxsatnomalar olish jarayonining murakkabligi biznes yuritishda qiyinchiliklar tug‘dirmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kichik va o‘rta biznes O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uni rivojlantirish va iqtisodiyotdagagi o‘rnini oshirish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash dasturlarini kuchaytirish, soliq va moliyaviy yengilliklar yaratish, infratuzilmani rivojlantirish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish hamda kadrlar malakasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalgalashni etish lozim.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



oshirish zarur. Ushbu omillar kichik va o‘rta biznesning barqaror o‘sishiga, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D. Karaxodjaeva, I. To‘raboev – “Soliqlar haqida ma'lumot olish xuquqingiz bor”. Toshkent. 2021-y.
2. B.R. Sanakulova. “Kichik biznes va tadbirdorlikni soliqqa tortish”, Toshkent: Nosir nashriyoti 2012. B-236
3. Dilshod Xo‘janov. “Kichik biznes sub’ektlarining huquqiy maqomi”, Toshkent. 2017. – B. 84
4. www.Lex.uz
5. www.biznes-portal.Uz

